



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

METAVERS TURIZMI: VIRTUAL DUNYODAGI SAYOHATNING IQTISODIY, HUQUQIY VA IJTIMOIIY NATIJALARI	12
Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich	
Eshimova Sevinch Baxtiyor qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUN'IY INTELLEKT VA PLATFORMA EKOTIZIMLARINING KORXONA INNOVATSIYALARIDAGI O'RNI	16
Izzatullayeva Madinabonu Yolqin qizi	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE ECONOMIC DAMAGE OF ECOLOGICAL HAZARDS IN URBAN AREAS: CONCEPTUAL SHORTCOMINGS OF NON-MARKET VALUATION METHODS AND THE INTEGRAL DAMAGE FUNCTION APPROACH	20
Abbos Saydullaev	
Iqboloy Choriyorova	
O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOT IMKONIYATLARI	31
Ibragimova Rayxon Tojibayevna	
OZIQ-OVQAT SANOATIDA "ZAYLANMA IQTISODIYOT (CIRCULAR ECONOMY)" MODELINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	36
Elnoraxon Muminova Abdulkarimovna	
Sarvinov Mamatojiyeva Dilshodjon qizi	
TRANSPORT KORIDORLARINI BOSHQARISHDA LOGISTIKA MENEJMENTINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	42
Umarova Dilfuza Raxmatulla qizi	
ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ И ПЕРСПЕКТИВ ЦИФРОВИЗАЦИИ МИСЕ-СЕКТОРА В УЗБЕКИСТАНЕ	47
Narzulloeva Fariza Akmalевна	
ECONOMETRIC MODELING OF THE DYNAMICS OF RETAIL TRADE TURNOVER UNDER THE INFLUENCE OF REAL HOUSEHOLD INCOME USING A LOGARITHMIC FUNCTION	53
Gaybullayev Sarvar Uktam ugli	
MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MAZMUN-MOHİYATI VA NAZARIY ASOSLARI	59
Mizamova Umida Jamoliddin qizi	
SPORT TAKOMILLASHUVI BOSQICHIDAGI FUTBOLCHILARNING MUSOBAQA FAOLIYATIDA INNOVATSION VOSITALARNING O'RNI	64
Mamatraimov Anvar Chorshanbiyavich	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA CHET TILINI VIZUAL MATERIALLAR VOSITASIDA O'RGATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	72
Olimova Shahlo Bahodir qizi	
Inomova Mahliyo Yusuf qizi	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI VA TASHQI AUDITNING NAZARIY ASOSLARI	76
Toshimov Azizbek Hakimovich	
Quvondiqov Shohboz Normamat o'g'li	
XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	81
Musurmonqulov Muhammad Ural o'g'li	
TEMIR YO'L ISHLAB CHIQRISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY MEXANIZMI	86
Baymatov Atxam Axmadaliyevich	



MENEJMENT NAZARIYASINING SHAKLLANISHI VA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI.....	92
Saidova Xilolaxon Rashidjon qizi	
OPPORTUNITIES FOR USING MARKETING STRATEGIES TO ENSURE THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF HOTEL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN	97
Sardor Kuvandikov	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОГРАММ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ	106
Абдуллаева Зульфия Иззатовна	
NAMANGAN VILOYATINING HUDUDIYIQTISODIY TUZILMASI VA SHAHARLAR TIZIMINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI.....	113
Ahmadjanov Ilyosbek Ilhomjon o'g'li	
JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMI VA XALQARO Tajribalar qiyosiy tahlili	117
G'afforov Kamronbek	
"O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AJNING SINGulyar VA BARQARORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	123
Bobojonova Zarnigor Shokirovna	
MINTAQAVIY IQTISODIY JARAYONLARNI BAHOLASHDA DSGE MODELINING QASHQADARYO SHAROITIGA MOSLASHTIRILGAN TAHLILiy KOMPOnentLARI.....	132
Muxitdinov Xudayar Suyunovich	
Quvatova Gulzoda Faxriddin qizi	
O'ZBEKISTONDA TIBBIY TURIZM VA TIBBIY XIZMATLAR TIZIMINING MAZMUNI	137
Ergasheva Iroda Ibrohim qizi	
FOYDA SOLIG'INING BANKLAR MOLiyaviy HOLATIGA TA'SIRINI BAHOLASH	141
Maxmudov Omon To'xtayevich	
RAQAMLI INFRATUZILMA TUSHUNCHASI, TARKIBI VA IQTISODIY MAZMUNI.....	147
Pardayev Orifjon Charshamiyevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI MOLiyALASHTIRISHDA XORIJIY DAVLATLAR Tajribalaridan FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	152
Omonova Zarina Xudoymurodovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI (Shartli "suv ta'minot servis" AJ misolida).....	160
Doniyorova M.	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KORXONALARI RIVOJLANISHINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH.....	164
Komilova Shaxnoza Komiljon qizi	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA INSON RESURLARINI BOSHQARISHDA XODIMNING QIYMAT YARATISH DARAJASINI BAHOLASHNING INTEGRALLASHGAN MODEL (EVCI)	169
Xaydarova Malika Shokirjon qizi	
ГОСУДАРСТВЕННАЯ ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ПОЛИТИКА УЗБЕКИСТАНА И МЕХАНИЗМ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ	174
Нодира Илхамовна Саидахмедова	
Жамолиддин Ярашевич Нуриллаев	
THE RELATIONSHIP BETWEEN FRUGALITY AND INNOVATION: A THEORETICAL AND METHODOLOGICAL PERSPECTIVES.....	181
Allaberganov Zakir Gaibovich	
Alimova Guzal Abdukhakimovna	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA TARMOQLARARO INTEGRATSIYANING INSTITUTSIONAL MODEL.....	188
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	



AHOLINI IJTIMOYIY HIMOYALASH TIZIMINI BOSHQARISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	196
Xamroyev Anvar Ashurovich	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI QAYTI ISHLAYDIGAN BIZNES	
SUBYEKTLARIDA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH	202
Ismaylov Kuatbay Sarsenbayevich	
IQTISODIYOT TARMOQLARINI QO'LLAB-QUVVATLASHDA FISKAL	
INSTRUMENTLARNING NAZARIY-IQTISODIY ASOSLARI	206
Mardonov Kamoliddin Karamiddinovich	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQUARISH	
XARAJATLARI VA ULARNI BOSHQARISH	212
Hamroyeva Feruza Azizjon qizi	
BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA TARMOQLARARO INTEGRATSIYANING	
INSTITUTIONAL MODELINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	217
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	
RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING IQTISODIY MAZMUNI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	226
Sirojev Nurbek G'ulomiddin o'g'li	
EKOLOGIK GLOBALLASHUV SHAROITIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI	
TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI.....	231
Nurmatov Samandar G'ayratovich	
TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY	
INVESTITSIYALAR (FDI)NING ROLI VA UNI RAG'BATLANTIRISH OMILLARI	238
Bau Long	
ПРОМЫШЛЕННЫЙ КОМПЛЕКС РЕГИОНА КАК ОБЪЕКТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ	
ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ	244
Aхрарова Шодияхон Жаъфархон кизи	
PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING KOMPLEKS USLUBIYATI	247
Djurayev Davlat Djonibekovich	
TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	
VA MOLIALASHTIRISHNING ZAMONAVIY AMALIYOTDAGI HOLATI TAHLILI	250
Raxmanova Laylo Baxodirovna	
SOLIQ QARZDORLIGINI HISOBLASH VA UNDIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI	
IQTISODIY SUBYEKTLAR MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH	256
Payziyev Hamid Orziqulovich	
PUL-KREDIT SIYOSATI INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISH	
AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	260
A.A. Ismailov	
O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA ULARNING	
ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORIGA TA'SIRI	266
Elmurodov Shohzod Shavkatovich	
DAVLATNING BUDJET SIYOSATI — MILLIY IQTISODIYOTNI TARTIBGA	
SOLISHNING ASOSIY INSTRUMENTI SIFATIDA.....	272
A.A. Ismailov	
ETNOGRAFIK RESURLARDAN FOYDALANISHNING STRATEGIK BOSHQARUV	
TAMOYILLARI ASOSIDA TURIZM SAMARADORLIGINI OSHIRISH	278
Axmedov Ikrom Akramovich	
O'ZBEKISTON TASHKILOTLARIDA UCHRAYDIGAN BOSHQARUV MUAMMOLARI	
VA ULARNI BARTARAF ETISH STRATEGIYALARI	285
Abiyev Jahongir Ne'matovich	
XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION FAOLIYATNING NAZARIY	
MODELI VA ILMIY YONDASHUVLARI.....	290
Abikayumov Bekzod Turdiniyozovich	



XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION FAOLIYATNING NAZARIY MODELI VA ILMIY YONDASHUVLARI

Abikayumov Bekzod Turdiniyozovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Raqamli iqtisodiyot” kafedrası mustaqil izlanuvchisi
E-mail: bekzodabdikayumov@gmail.com

Annotatsiya. Xizmatlar sohasida innovatsion faoliyatning nazariy modeli va ilmiy yondashuvlari tahlil qilingan. Xizmatlar sohasi zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, unda innovatsiyalar raqobatbardoshlikni oshirish, xizmat sifati va samaradorlikni yaxshilashda asosiy omil hisoblanadi. Tadqiqotda innovatsion faoliyatning kirish resurslari (inson kapitali, moliyaviy resurslar, texnologik infratuzilma), jarayon bosqichlari hamda natijaviy ko'rsatkichlari tizimli ravishda yoritilgan. Shuningdek, tizimli, jarayonli, institutsional, bilimlarga asoslangan va mijozga yo'naltirilgan yondashuvlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalar va global transformatsiya sharoitida xizmatlar sohasida innovatsion rivojlanishning ahamiyati ortib borayotgani asoslab berilgan.

Kalit so'zlar. Xizmatlar sohasi, innovatsiya, nazariy model, raqamli iqtisodiyot, inson kapitali, innovatsion jarayon, raqamli transformatsiya, mijozlar qoniqishi.

Abstract. This article analyzes the theoretical model and scientific approaches to innovative activity in the service sector. The service sector is a key component of modern economies, where innovation plays a crucial role in enhancing competitiveness, service quality, and efficiency. The study systematically examines input resources (human capital, financial resources, technological infrastructure), innovation processes, and resulting outcomes. In addition, systemic, process-oriented, institutional, knowledge-based, and customer-oriented approaches are scientifically reviewed. The research highlights the growing importance of innovation in the service sector under conditions of digital transformation and global economic change.

Keywords. Service sector, innovation, theoretical model, digital economy, human capital, innovation process, digital transformation, customer satisfaction.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретическая модель и научные подходы инновационной деятельности в сфере услуг. Сфера услуг является ключевым элементом современной экономики, где инновации играют важную роль в повышении конкурентоспособности, качества и эффективности услуг. В исследовании системно рассматриваются входные ресурсы (человеческий капитал, финансовые ресурсы, технологическая инфраструктура), этапы инновационного процесса и его результаты. Также анализируются системный, процессный, институциональный, знаниевый и клиентоориентированный подходы. Подчеркивается возрастающее значение инновационного развития сферы услуг в условиях цифровой трансформации и глобальных изменений экономики.

Ключевые слова. Сфера услуг, инновации, теоретическая модель, цифровая экономика, человеческий капитал, инновационный процесс, цифровая трансформация, удовлетворенность клиентов.

KIRISH

Xizmatlar sohasi zamonaviy iqtisodiyotlarda markaziy o'rin egallaydi va iqtisodiy o'sish, bandlik hamda ijtimoiy rivojlanishni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. So'nggi o'n yilliklarda texnologik taraqqiyotning jadallashuvi, globallashuv va mijozlar talablarining ortib borishi xizmatlar sohasining rivojlanish xususiyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatib, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar o'rtasidagi raqobatni kuchaytirdi. Bunday sharoitda innovatsiyalar xizmatlar sohasida barqaror rivojlanish va raqobatbardoshlikni ta'minlovchi asosiy omillardan biriga aylandi. Xizmatlar sohasidagi innovatsion faoliyat faqat yangi texnologiyalarni joriy etish bilan cheklanib qolmay, balki xizmat ko'rsatish jarayonlarini, tashkiliy tuzilmalarni, mijozlar bilan munosabatlarni va biznes-modellarini takomillashtirishni ham o'z ichiga oladi. Shu sababli xizmatlar sohasida innovatsion faoliyatning nazariy modellari va ilmiy yondashuvlarini o'rganish tadqiqotchilar hamda siyosat yurituvchilar uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsiyaning nazariy asoslari avvalo Yozef Shumpeterning ilmiy ishlari bilan bog'liq bo'lib, u innovatsiyaning iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qilgan. Uning nazariyasiga ko'ra, innovatsiya yangi mahsulotlar, ishlab chiqarish usullari, bozorlar va tashkiliy shakllarni joriy etishni anglatadi hamda iqtisodiy taraqqiyotni rag'batlantiradi. Garchi Shumpeterning dastlabki konsepsiyasi ishlab chiqarish sanoati uchun ishlab chiqilgan bo'lsa-da, uning tamoyillari xizmat ko'rsatish faoliyatiga ham to'liq tatbiq etilishi mumkin. Xizmatlar sohasida innovatsiyalar ko'pincha xizmat ko'rsatuvchi va mijoz o'rtasidagi o'zaro hamkorlik natijasida yuzaga keladi, shu bois mijozlarning ishtiroki innovatsion jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Moddiy mahsulotlardan farqli ravishda xizmatlar nomoddiylik, ishlab chiqarish va iste'molning bir vaqtda sodir bo'lishi hamda inson resurslariga yuqori darajada bog'liqligi bilan tavsiflanadi. Natijada, xizmatlar sohasidagi innovatsion faoliyat ko'pincha mijozlar tajribasini yaxshilash, xizmat sifatini oshirish va operatsion samaradorlikni kuchaytirishga qaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Xizmatlar sohasidagi innovatsion faoliyatning nazariy modelini mavjud resurslarni innovatsion jarayonlar orqali iqtisodiy va ijtimoiy natijalarga aylantiruvchi tizim sifatida ko'rish mumkin. Ushbu model innovatsion kirish omillari bilan boshlanadi. Bular inson kapitali, moliyaviy resurslar, texnologik infratuzilma, tashkiliy bilimlar va ilmiy-tadqiqot faoliyatlarini o'z ichiga oladi. Inson kapitali alohida ahamiyatga ega, chunki xodimlarning bilim, malaka, ijodkorlik va tajribasi innovatsion g'oyalarni yaratish hamda yangi yechimlarni joriy etishning asosini tashkil etadi. Moliyaviy investitsiyalar zamonaviy texnologiyalarni xarid qilish va innovatsion loyihalarni amalga oshirishni qo'llab-quvvatlaydi, tashkiliy bilimlar esa o'rganish va uzluksiz takomillashuv jarayonlarini ta'minlaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ham muhim rol o'ynab, raqamli transformatsiyani amalga oshirish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish imkonini beradi. Nazariy modelning keyingi bosqichi innovatsion jarayonning o'zidir. Ushbu jarayon g'oyalarni yaratish, baholash, ishlab chiqish, joriy etish va ommalashtirish bosqichlarini qamrab oladi. Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar innovatsion g'oyalarni ko'pincha mijozlar fikr-mulohazalari, xodimlarning takliflari, bozor tadqiqotlari va texnologik yangiliklar orqali shakllantiradilar. G'oyalar baholanib tanlab olingach, ular sinovdan o'tkazilib, amaliy yechimlarga aylantiriladi. Doimiy monitoring va takomillashtirish innovatsiyalarning o'zgaruvchan bozor sharoitlarida dolzarbligi va samaradorligini saqlab qolishga xizmat qiladi. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili (Big Data), bulutli texnologiyalar va mobil platformalar kabi raqamli texnologiyalar xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning innovatsion salohiyatini sezilarli darajada oshirib, mijozlar ehtiyojlariga tezkor javob berish imkoniyatini yaratmoqda.

Innovatsion faoliyat natijalari yangi xizmatlar, xizmat ko'rsatishning takomillashtirilgan usullari, raqamli platformalar, tashkiliy innovatsiyalar va marketing innovatsiyalari ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin. Ushbu natijalar samaradorlikning oshishi, xizmat sifatining yaxshilanishi va mijozlar qoniqishining ortishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida, innovatsion faoliyatning yakuniy samaralari raqobatbardoshlikning kuchayishi, mehnat unumdorligining oshishi, daromadlarning ko'payishi, bozorlarning kengayishi va uzoq muddatli barqarorlikning ta'minlanishida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, nazariy model resurslar va imkoniyatlarning tizimli innovatsion faoliyat orqali iqtisodiy qiymatga ega natijalarga aylanish jarayonini ko'rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xizmatlar sohasidagi innovatsion faoliyatni tushuntirish va tahlil qilish uchun turli ilmiy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Ulardan eng muhimlaridan biri tizimli yondashuv bo'lib, u innovatsiyaning ko'plab ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanuvchi murakkab hamda o'zaro bog'liq jarayon sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, innovatsiyaning alohida holda tushunish mumkin emas, chunki u mijozlar, xodimlar, yetkazib beruvchilar, raqobatchilar, davlat institutlari va texnologik infratuzilma o'rtasidagi o'zaro aloqalarga bog'liqdir. Tizimli yondashuv innovatsiyalar uchun qulay muhit yaratishda manfaatdor tomonlar o'rtasidagi hamkorlik va muvofiqlashtirishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Yana bir muhim yondashuv jarayonli yondashuv hisoblanadi. U innovatsiyaning g'oyalarni amaliy natijalarga aylantirishga qaratilgan izchil faoliyatlar ketma-ketligi sifatida ko'radi. Ushbu yondashuv rejalashtirish, amalga oshirish, monitoring va baholash bosqichlariga e'tibor qaratib, tashkilotlarga innovatsion faoliyatni samarali boshqarish imkonini beradi. Innovatsion jarayonning har bir bosqichini tahlil qilish orqali menejerlar samarasizliklarni aniqlashi va uzluksiz takomillashtirish strategiyalarini ishlab chiqishi mumkin.

Institutsional yondashuv esa innovatsion faoliyatga rasmiy va norasmiy institutlarning ta'sirini o'rganadi. Davlat siyosati, huquqiy me'yorlar, ta'lim tizimi, madaniy qadriyatlar va tarmoq standartlari xizmat



ko'rsatuvchi tashkilotlar faoliyat yuritadigan muhitni shakllantiradi. Qo'llab-quvvatlovchi institutsional tizimlar moliyaviy rag'batlantirish, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini rivojlantirish, intellektual mulk huquqlarini himoya qilish hamda bilimlar transferini rag'batlantirish orqali innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlaydi. Aksincha, institutsional qo'llab-quvvatlashning yetarli darajada rivojlanmaganligi innovatsion faoliyat imkoniyatlarini qisqartirishi va raqobatbardoshlik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bilimlarga asoslangan yondashuv zamonaviy tashkilotlarda bilimni eng qimmat strategik resurs sifatida ko'radi. Xizmatlar sohasi axborot, tajriba va mijozlar bilan muloqotga katta darajada tayanishi sababli, bilimlarni samarali boshqarish innovatsion muvaffaqiyatning muhim sharti hisoblanadi. Bilimlarni egallash, yaratish, ulashish va amaliyotda qo'llashni samarali tashkil eta oladigan korxonalar innovatsion yechimlarni ishlab chiqish va bozor sharoitlaridagi o'zgarishlarga moslashishda ustunlikka ega bo'ladilar. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi esa tezkor axborot almashinuvi va hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirib, bilimlarni boshqarishning ahamiyatini yanada oshirdi. Mijozlarga yo'naltirilgan yondashuv ham xizmatlar sohasi uchun juda dolzarbdir, chunki mijozlar ko'pincha xizmatlarni yaratish va yetkazib berish jarayonida bevosita ishtirok etadilar.

Mijozlarning ehtiyojlari, afzalliklari va kutgan natijalarini chuqur tushunish tashkilotlarga ularga yuqori qiymat va qoniqish keltiradigan innovatsion xizmatlarni yaratish imkonini beradi. Mijozlar fikr-mulohazalari takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash va yangi g'oyalarni shakllantirish uchun muhim axborot manbai hisoblanadi. Shu sababli, mijozlar bilan mustahkam aloqalarni yo'lga qo'ygan tashkilotlar innovatsion muvaffaqiyatga erishish ehtimoli yuqoriroq bo'ladi. Innovatsiyalarning ahamiyati ortib borayotgan sharoitda xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar innovatsion faoliyatni amalga oshirish jarayonida ayrim tashkiliy, moliyaviy va texnologik omillar bilan bog'liq masalalarga duch kelmoqda. Jumladan, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish zarurati, tashkiliy o'zgarishlarga bosqichma-bosqich moslashish, texnologik imkoniyatlarni kengaytirish hamda innovatsion faoliyat samaradorligini baholash mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb vazifalar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xizmatlarning nomoddiy xususiyati tufayli xizmatlar sohasida innovatsion yechimlarning o'ziga xosligini saqlab qolish moddiy mahsulotlarga nisbatan murakkabroq hisoblanadi. Shunga qaramay, raqamli texnologiyalarning uzluksiz rivojlanishi xizmatlar sohasida innovatsiyalarni joriy etish va biznesni transformatsiya qilish uchun yangi imkoniyatlarni yaratishda davom etmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xizmatlar sohasida innovatsion faoliyat zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning eng muhim omillaridan biri bo'lib, u xizmat ko'rsatish sifati, raqobatbardoshlik va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalar nafaqat yangi texnologiyalarni joriy etish, balki xizmat ko'rsatish jarayonlarini takomillashtirish, yangi biznes-modellarini shakllantirish, tashkiliy boshqaruvni modernizatsiya qilish va mijozlar bilan o'zaro aloqalarni rivojlantirishni ham qamrab oladi. Shu jihatdan innovatsion faoliyat xizmatlar sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi strategik omil sifatida namoyon bo'ladi. Xizmatlar sohasida innovatsion faoliyatning nazariy modeli innovatsion resurslar, innovatsion jarayonlar va innovatsion natijalar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalaydi. Inson kapitali, moliyaviy resurslar, raqamli texnologiyalar va tashkiliy bilimlar innovatsion faoliyatning asosiy kirish omillari bo'lsa, innovatsion jarayon ushbu resurslarni iqtisodiy va ijtimoiy qiymat yaratuvchi natijalarga aylantiradi. Natijada yangi xizmatlar, raqamli platformalar, marketing va tashkiliy innovatsiyalar shakllanib, mehnat unumdorligi, xizmat sifati hamda mijozlar qoniqishi ortadi.

Xizmatlar sohasidagi innovatsion faoliyatni tushuntirishda tizimli, jarayonli, institutsional, bilimlarga asoslangan va mijozlarga yo'naltirilgan yondashuvlar muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlar innovatsion faoliyatning turli jihatlarini yoritib berish bilan birga, innovatsiyalarni samarali boshqarish va amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, raqamli transformatsiya sharoitida sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili, bulutli texnologiyalar va mobil platformalarning keng qo'llanilishi xizmatlar sohasining innovatsion salohiyatini yanada oshirmoqda. Shu bilan birga, moliyaviy resurslarning cheklanganligi, tashkiliy qarshiliklar, texnologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi va innovatsion natijalarni baholashdagi murakkabliklar xizmatlar sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirishdagi asosiy muammolar sifatida saqlanib qolmoqda. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun innovatsion muhitni qo'llab-quvvatlovchi institutsional mexanizmlarni takomillashtirish, inson kapitalini rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda mijozlarga yo'naltirilgan boshqaruv tamoyillarini kuchaytirish zarur hisoblanadi. Umuman olganda, xizmatlar sohasida innovatsion faoliyatning nazariy modeli va ilmiy yondashuvlari innovatsiyalarni shakllantirish, boshqarish va baholashning konseptual asoslarini belgilab beradi hamda xizmatlar sektorining uzoq muddatli iqtisodiy o'sishi, raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest and the Business Cycle. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934. – 255 p.
2. Drucker P.F. Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. – New York: Harper & Row, 1985. – 277 p.
3. Gallouj F., Weinstein O. Innovation in Services // Research Policy. – 1997. – Vol. 26. – No. 4–5. – P. 537–556. DOI: 10.1016/S0048-7333(97)00030-9.
4. Miles I. Services Innovation: Coming of Age in the Knowledge-Based Economy // International Journal of Innovation Management. – 2000. – Vol. 4. – No. 4. – P. 371–389. DOI: 10.1142/S1363919600000202.
5. Tidd J., Bessant J. Managing Innovation: Integrating Technological, Market and Organizational Change. – 6th ed. – Hoboken, NJ: Wiley, 2018. – 608 p.
6. Chesbrough H.W. Open Innovation: The New Imperative for Creating and Profiting from Technology. – Boston, MA: Harvard Business School Press, 2003. – 272 p.
7. OECD/Eurostat. Oslo Manual 2018: Guidelines for Collecting, Reporting and Using Data on Innovation. – 4th ed. – Paris: OECD Publishing; Luxembourg: Eurostat, 2018. – 258 p. DOI: 10.1787/9789264304604-en.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>